

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA INSON HAQIDAGI MASALALAR



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15681469>

Qurbonov Farhodjon Xabibloyevich

Alfraganus universiteti

Ijtimoiy fanlarlar kafedrasi o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Alisher Navoiy olam va odam mohiyati haqida ko'p bosh qotirgan, tiriklik va o'lim sabablari ustida muttasil mulohaza yuritgan, inson hayotining maqsadi, ma'no-mazmuni xususida bir umr o'ylagan. Uning chuqur bilim, keng dunyoqarash, katta hayotiy tajriba, olimona teran tafakkur va shoirona o'tkir nigoh bilan uyg'unlashgan fikr-mulohazalari, falsafiy xulosalari hikmatlarida mujassamlashib, butun dunyo xalqlari tomonidan e'rtirof etilmoqda.

Navoiy temuriylar davrining murakkab sharoitida, jamiyatda ziddiyatlar avj olgan, temuriyzodalarning hokimiyat uchun kurashlari kuchaygan davrda yashadi va ijod qildi. U o'z davridagi yaqin va o'rta Sharq, O'rta Osiyo xalqlari adabiyoti, tarixi, ilm-fani, madaniyati, antik davr yunon, o'rta asr arab, eron, O'rta Osiyo mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy, diniy va dunyoviy bilimlarini, tasawuf ta'limotini Chuqur va mukammal egallagan. Bu narsa uning ijtimoiy-falsafiy qarashlari shakllanishiga, shubhasiz, katta ta'sir ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, falsafa, komil inson, ma'naviyat, axloqiy qadriyatlar, olam va odam, tarixiy rivojlanish.*

KIRISH

Alisher Navoiyning falsafiy dunyoqarashi vahdati-vujud, ya'ni borliqning birligi ta'limotiga asoslanadi. Uningcha, borliq — bu Xudodir, Xudo mutlaq borliqdir. U atrofdagi narsa va hodisalarda namoyan bo'ladi va mohiyatiga ko'ra yakka-yu yagona, lekin tabiatda o'zini zuhur etadi. Navoiyning fikricha, mavjud narsalarning hammasi mutlaq borliq — Xudoning zohid sifatleri, ko'rinishidir.

Mutlaq borliq — Xudo abadiy, boqiy va hamma narsaning yaratuvchisidir, boshqa barcha mavjudotlar o'tkinchi, vaqtinchadir. Yaratuvchi o'zining qudratli qalami bilan butun olamni aniq bir reja ostida bunyod qilgan. Awalo, to'qqiz falakni aylanuvchi qilib yaratdi va buning sirini tushunishda idrokni ojiz qildi. Ko'kni tun va kunga bog'lab, uni Quyosh va yulduzlar bilan bezadi. Unda Oy go'yo osmon tirnog'iga o'xshash bo'lib, yangi Oy esa, tirnog'ining bir bo'lagini eslatadi⁴¹⁰.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Alisher Navoiyning borliq haqidagi qarashlari islom diniy ta'limotidan farq qiladi. Chunki, Alisher Navoiyning fikricha, Xudo butun borliqning yagona asosidir; awal boshda yolg'iz Xudoning o'zi bo'lgan, undan bo'lak hech kimsa,

⁴¹⁰ Alisher Navoiy. Lisonut-tayr (Nasriy bayoni), T., 1984, 11-bet.

hech narsa bo'lmagan, Xudo hadsiz kuch-qudratga va cheksiz imkoniyatlarga ega bo'lgan, so'ngra esa bu kuch-qudrat va imkoniyatlarini namoyon qilib, butun boriqni — tabiatni, insonni yaratgan. Bu o'rinda shuni ko'ramizki, Alisher Navoiy bir tomondan, boriqni, uning shakllarini e'tirof etadi, ikkinchi tomondan, uni ilohiylashtiradi. Shu bilan birga, u butun boriqni moddiy va ma'naviy borliqdan iborat, deb bilib, moddiy borliqning asosi to'rt unsur: suv, tuproq, o't (olov) va havodan iborat, deb tushunadi. Lekin, borliq dastlab, mutlaq borliq — Xudo sifatida makon va zamonga ega bo'lmay, uning awali ham, oxiri yo'q, bor va mavjud bo'lgan, deydi.

Alisher Navoiy borliqni yana mutlaq va nisbiy borliqlarga ajratadi. Mutlaq borliqning zamoni va makoni yo'q, deydi. Nisbiy borliq esa, makon va zamonga ega, u o'tkinchi, awali va oxiri bor, shu tufayli, u azaliy va abadiy bo'lolmaydi. Uning fikricha, nisbiy borliq mutlaq borliqqa qaramdir. Nisbiy borliq mutlaq borliqning harakati natijasida bor bo'lishi va yo'q bo'lishi mumkin, ammo nisbiy borliqning bor yoki yo'q bo'lishining mutlaq borliqqa hech bir ta'siri yo'q. Bir butun koinot ham mutlaq borliqning o'zgarishi natijasida vujudga kelgan. Shu tufayli, koinotda barcha narsa va hodisalar mutlaq borliqning zuhuroti, uning turli-tuman ko'rinishlaridan iboratdir. Koinotdagi barcha narsa va hodisalar, mavjudotlar esa, zamon va makonda cheklangan, ular muayyan zamon va makonda mavjud bo'ladi.

Koinotdagi har bir narsa va hodisa yo'qdan bor bo'lgan emas, ular bor (mavjud) bo'lishdan awal mutlaq borliqda **mumkinot** holatida bo'lgan. Mumkinot, Alisher Navoiy fikricha, o'zaro zid yoki bir-biridan farq qiluvchi vujudlarning birlik holatidir. Mumkinotni tashkil qilgan o'zaro zid yoki farqli vujudlar bir-biridan ajralsa, orada paydo bo'lgan farq tufayli ular zuhur qiladi va ma'lum ko'rinishga ega bo'ladi. Agar zuhur qilingan farqli vujudlar birlashsa, ularning sifatleri yashirin holatga o'tadi va avvalgi alohida ko'rinishlarini yo'qotadi. Demak, mutlaq borliqning o'zida zid va farqli jihatlari bo'lib, bu jihatlari, farqli sifatlar bir-biridan ajralgan mutlaq borliqning yaratuvchilik ijodi sifatida amalga oshadi. Farqli sifatlar bir-biriga qo'shilganda esa, ularyagona farqli holatga kelib, adog'i (borni yo'q qilish) yuzaga keladi. Lekin, bunda borning yo'q bo'lishi va yo'qning bor bo'lishi ham nisbiy, ya'ni borliqning sifati zohir holatidan botinga o'tishdan iborat bo'ladi, ammo u zot jihatidan yo'q bo'lmaydi.

Alisher Navoiy koinotdagi eng yetuk vujud — **mavjudot** deb, insonni hisoblaydi. Uningcha, inson butun tirik mavjudotning gultojisidir. Shuning uchun uning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida inson muammosi salmoqli va yetakchi o'rinni egallagan. Alisher Navoiy fikricha, Xudoning olamni yaratishdan bosh maqsadi ham insondir. Inson butun borliqning ko'rki va sharafidir.

Alisher Navoiy fikricha, insonning latif va sharifligining boisi shundaki, insonda ilohiyotning butun ko'rki va kuch-qudrati, sir-u sinoati hammadan ko'ra to'laroq va mukammalroq mujassam- lashgandir. „**Butaqdir bila andoq tahqiq bo'ldim — kim, haq subhonoxu va taolo maxluqotda ba'ni odamdin sharifroqdir va bimakroqdir xalq qilmaydur. Nevchunki, ma'rifatuloh**

ganjining zamini va mahrami uldur", deb yozadi o'zining „Nasoyim ul-muhabbat" asarida⁴¹¹.

U insonni bioijtimoiy mavjudot sifatida olib, inson o'z hayotini o'zi uchun ham, butun jamiyat uchun ham foydali bo'lgan ishlarga bag'ishlashi, buning uchun u, avvalo, kasb-hunar o'rganishi, ma'rifatli, fazilatli va xushhulq bo'lishi kerak, deydi. Uning inson haqidagi mana shunday ijtimoiy fikrlari negizida farovonlik, osoyishtalik va baxtiyorlik hukm suigan jamiyat va odil shoh g'oyalari vujudga kelgan.

Alisher Navoiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari shu bilan birga, insonning dunyoni bilishi haqidagi fikrlari ham muhim ahamiyatga ega, ya'ni falsafaning bilish nazariyasiga o'zining munosib hissasini qo'shgan.

Uning fikricha, insoning bilishdan asosiy maqsadi — bor- liqni, tabiatni, insonning i zini o'rganib, anglab, yomonlikni yo'qotish, yaxshilikni ko'paytirishdir. Insonning boriqni to'g'ri bilishi, uning dunyoda baxtli, farovon hayotini ta'miri etishi — bilishning asosiy vazifasidir. Alisher Navoiy inson bilishini sezgilar, his etishdan boshlanishi, bunda sezgi a'zolari muhim rol o'ynaydi, lekin sezgi a'zolari orqali olingan ma'lumotlar hali tartibga tushmagan va yuzaki bo'lishi, ularni hofiza (miya)da tafakkur orqali tartibga solinishi, tahlil qilinishi, taqqoslanishi va jamlanishi, so'ng fikrda ifodalanishi haqida gapiradi.

Navoiy, shubhasiz, barkamol inson to'g'risidagi Boyazid Bistomiy, Muhiyiddin Arabiy, Aziziddin Nasafiy qarashlarini rad etmaydi, balki uni har tomonlama rivojlantiradi.

Mutafakkirning fikricha, barkamol insonning barcha fazilatlari, xislatlarining asosida imon yotadi. Imonlilik esa, eng avvalo, insonda namoyon bo'ladi. Insofli, diyonatli insonga xos xislatlardan biri erkinlikdir. Bunday kishi uchun erkin fikr yuritish, boshqacha aytganimizda, aql va ko'ngil ozodligi har qanday saltanat, toj-u taxtdan balandroqdir.

Alisher Navoiyning tushuntirishiga qaraganda, insonning axloqiy tubanlashuviga sabab bo'layotgan illatlardan biri - nafsni tiya bilmaslikdir. Inson tabiatda xudbinlikning vujudga kelishi ham nafsning kasofatidir. Faqat nafsni tiyish, sabr-qanoat – insonni har qanday kafolatlardan, axloqsizliklardan saqlab qoladi.⁴¹² Navoiy qarashlarida qanoat – insonning eng muhim axloqiy xislat sifatida har tomonlama ulug'lanadi.

Alisher Navoiy asarlarida foydalanilgan turli rivoyatlar, naqlar – zohiriy bir libos edi. Aslida insonning ruhiy-ma'naviy kamolotga yetish jarayonini kuylash – shoirning asosiy maqsadi edi. Navoiy tarannum etgan ishq-muhabbat tasavvufiy mazmunga ega bo'lib, insonning ongi va faoliyatida bo'ladigan sifatiy o'zgarishlarni Olloh nuri chig'irig'ida ko'rish, ushbu jarayonni qalb ko'zi bilan mushohada qilishning ifodasidir. Farhod, SHirin, Layli, Majnunlar murakkab yo'lni bosib o'tib, haqiqatga yetib kelgan orif kishilar timsolidir.

⁴¹¹ Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar, 15-jild. Toshkent sh. 2008 yil - 166 b.

⁴¹² Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. - Toshkent, 1983, -74 b.

Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” asarida inson ko‘ngli, el ko‘ngli birikmasini xalq, el bahosi, nazari va bu baho, nazar har bir inson hayotida, ayniqsa, qalam ahli hayotida, ijodida muhim mezon, munosabat kabi tushunchalarda hamda adabiy tanqidchilikning bir ma’rifiy vositasi sifatida ham talqin qiladi.

Alisher Navoiy shoirning ijodiy va axloqiy qiyofasi bir-biri bilan uzviy bog‘langan holda tushunadi. Shuning uchun u shoir ijodi xususiyatlarini belgilashga urinar ekan, uning axloqiy qiyofasini ham bir yo‘la yoritib boradi. Shuning orqali Alisher Navoiy shoir ijodining qanday ekanini, nimaga qaratilganligini ko‘rsatib, o‘zining unga bo‘lgan munosabatini ham ifoda etadi.

Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois"idan ma’lumki muallif kamtar, o‘ziga talabchan, insonparvar, adolatli, chuqur mulohazali, xushmuomala, xushshuhbat, dono shoirlarning ijodini yuqori baholaydi, ularni yoqtiradi. Axloqan tuban shoirlar ijodining xususiyatini esa ularning axloqiy qiyofasiga bog‘laydi, bundaylarga salbiy munosabatda bo‘ladi.

Navoiy g‘azallarini o‘qiganda esa real insoniy kechinmalarning izhori, shikoyat va hasrat ohangining shiddat bilan oqib kelayotganligiga guvoh bo‘lamiz va bu dastlab bizni ruhiy tushkunlikka sola boshlaydi.⁴¹³ Biroq Navoiy so‘zlarining qudrati shundaki, ularning zamirida vafo va sadoqat, ya’ni odamiylik xislatlarini tiklashga da’vat bor.

Tasavvufshunos Ibrohim Haqqul fikricha, Navoiyning komillik haqidagi qarashlari to‘rt ustuvor asosga, ya’ni Axloq go‘zalligi, qalb tasfiyasi⁴¹⁴, Ruhiyat qudrati va tafakkur balog‘atiga tayanadi⁴¹⁵.

Mutafakkirning fikr yuritishicha, “aql yordamida inson hamma narsalarning siru asrorini, dunyodagi o‘zgarishlarni, ularning mohiyatini chuqur idrok qilolmaydi. Bunga aql ojizlik qiladi. Zero, inson bilimi, aqli chegaralangan. U haqiqatni to‘la anglay olmaydi”⁴¹⁶. SHunga qaramasdan, Navoiy insonni aqlsiz tasavvur qilmaydi. Inson qanday ish bilan shug‘ullanmasin aqlga, tafakkurga, uning kuchiga ishonishi kerak, degan fikr mutafakkir asarlarining muhim jihatini tashkil qiladi.

Hazrat Navoiy saxiylikni insonparvarlik, komillikning muhim xislati deb biladi. Odamiylik insonni inson qiladigan, uni boshqa tirik mavjudotlardan ajratib turadigan nodir fazilatdir. Saxiylik esa odamiylik, insonparvarlikning tarkibiy qismidir. Mutafakkirning ta’biri bilan aytganda:

Muruvvat borcha bermakdur, yemak yo‘q,
Futuvvat borcha qilmoqdur, demak yo‘q⁴¹⁷.

⁴¹³ Komilov Najmiddin. A.Navoiy “Istadi” g‘azali umumiy ma’no-mazmuni. Jahon adabiyoti. 2012 yil 6-son. 5-bet

⁴¹⁴ Tasfiya – soflash, tozalash, tiniqlash.

⁴¹⁵ Qarang: Ibrohim Haqqul. Navoiy she’riyatida komil inson mavzui // Alisher Navoiyning ijodiy merosi va uning jahonshumul ahamiyati. - Toshkent-Navoiy: Fan, 2001.

⁴¹⁶ O‘zbekistonda ijtimoiy-axloqiy va gumanistik fikrlar tarixining muhim bosqichlari. (Aliqulov H., Nosirov R., SHaripov A., va b.). –Toshkent: Falsafa va huquq, 2007. –196 b.

⁴¹⁷ Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. Favoyid ul-kibar. Asarlar. T. 4. –Toshkent: Toshkent, 1965. – 447 b.

Mutafakkirning yana bir muhim xususiyati, bizning fikrimizcha, shundan iboratki, ul zot o'zining g'azal, ruboiy va dostonlarida insonparvarlikka oid qarashlarni bayon qilish bilan cheklanib qolmasdan, balki o'zi buyuk insonparvar shoir degan nom qozondi, odamiylikda boshqalarga o'rnak bo'ldi. U doimo oddiy xalq g'am-tashvishiga sherik bo'ldi, ularga homiylik qildi.

Alisher Navoiyning "Xamsa"ga kirgan dostonlarida ham insonparvarlik g'oyalari yaqqol namoyon bo'ladi. Uning "Farhod va SHirin", "Layli va Majnun", "Saddi Iskandariy" va boshqa dostonlaridagi Farhod, SHirin, Layli, Majnun, Iskandar, Suqrot, Aflotun timsollarida vatanparvarlik, insonparvarlik kabi yuksak axloqiy fazilatlar, olijanob qadriyatlar jamlangan. Bu obrazlar allomaning ijtimoiy-falsafiy, axloqiy va gumanistik qarashlariga mos holda bayon qilinadi. Hazrat Navoiy odamiylik, vafodorlik, mehr-oqibat, xalq g'amida yashash, uning farovonligi, baxt-saodati yo'lida hatto jonini fido qilish, xayr-ehson, o'zgalarga saxiylik qilish kabi fazilatlarini hamma narsadan yuqori qo'yadi. Mutafakkir bu bilan insonni, uning xislatlarini ulug'laydi, uni boshqa jonzotlardan a'lo ekanligini ishonarli tarzda isbotlab beradi.

Navoiyning hayotda qilgan ishlari, davlat arbobi sifatidagi faoliyati, xalqning turmushini yaxshilashga, og'ir qismatini yengillashtirishga qaratilgan savobli va xayrli ishlari, nasriy va nazmiy asarlarining mazmun-mohiyati umuminsoniy va gumanistik ruh bilan sug'orilgan. Mutafakkir insonparvarlik tushunchasiga ijtimoiy mazmun beradi. Uningcha, kamtarlik, vafodorlik, nafsni tiyish, rostgo'ylik, saxiylik, donolik, muhtoj va yetim-esirlarga yordam berish, bag'rikenglik, muloyimlik, shirinsuxanlik, shijoatkorlik, ezgulik, mehr-muruvvat, rahmdillik, odamiylik - bularning hammasi insonparvarlikning tarkibiy qismi bo'lib, insonni kamolot sari yetaklaydi.

نیست اخسان آنکه از همت ندارد بهرهای
گر بدن بی روح باشد زنده نامیدن خطاست

Himmatsiz kishi er sonida emas,
Va ruhsiz badanni kishi tirik demas.⁴¹⁸

Buyuk insonparvar shoir o'rta asrdagi Uyg'onish davrining boshqa ulug' zotlari singari butun hayotida haqiqiy inson qanday bo'lishi lozimligini ko'rsatdi. U o'z davridagi nohaqlikka, adolatsizlikka qarshi kurashdi va buni o'z asarlarida ifodaladi. SHuning uchun bo'lsa kerak, shoirning shaxsiy na'muna bo'lganligi o'z navbatida uning asarlaridagi insonparvarlik va ezgulik g'oyalarining o'ziga hos talqinini yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Navoiy ijodida eng asosiy insonparvarlik va ezgulik g'oyalarining o'ziga hoslik tomoni shundaki, o'zi yashagan davrgacha faoliyat yuritgan barcha mutafakkir va ijodkorlardan farqli ravishda ilohiylik va dunyoviylik tamoyilini uyg'unlashib ketganligidadir. Ilohiy g'oyalar, timsollar uning uchun inson hamisha intiladigan ideal olam bo'lsa, dunyo shu ideal olamning ko'zgusi, ibrat va saboq maydoni. Zero, insonda koinotning, ilohiy olamning hikmatlari,

⁴¹⁸ Alisher Navoiy. Devoni Foniyy. Asarlar. O'n besh jildlik. 5-jild. I va II kitoblar. – Toshkent, 1965.

mohiyati aks etgan. Ayniqsa, bu boradagi qarashlar "Xayrat ul – abror" dostonini asosini tashkil etadi. "Neki olami kubroda bor-olami sug'roda bor", deydi Navoiy ushbu dostonida. Olami kubro- katta olam, ya'ni koinot, borliq. Olami sug'ro-kichik olam, ya'ni inson. Bunday qarash aslida Odam Atoning yaratilishi haqidagi rivoyatga borib taqaladi. Odam Ato, Qur'oni karimda aytilishicha, tuproqdan yaratilib, keyin unga Alloh o'z ruhini yuborib, jon ato etadi. Demak, inson modda va ruh yoki yoki tabiat va ilohdan vujudga kelgan. SHu bois inson tiynatining o'zida majoz va haqiqat, ilohiylik va dunyoviylik mujassam. Bu olam yagonaligi haqidagi vahdat ul- vujud ta'limotiga muvofiqdir.

XULOSA

Shuni aytish o'rinliki, hazrat Navoiy "Xayrat ul – abror" dostonida tasavvuf falsafasidagi axloq, xulq-odob qoidalari, insonparvarlik va odamiylik, nafsni tiyish, adolat va ma'rifat, tabiat va insonni sevish, ularni e'zozlash, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi g'oyalardan unumli foydalandi. Bu g'oyalar mutafakkirning boshqa g'azal va ruboiylari, dostonlari, nasriy asarlariga ham singib ketgan. I.Haqqul ta'kidlaganidek, "Navoiyning tasavvufga yondashuvi va bu ta'limotdan ko'zda tutgan maqsadi – shaxs va millat taqdiriga mas'ul, yurt taraqqiyotiga suv va havoday zarur tushunchalarning istiqboli uchun yonib kurashgan, haqiqatni faqat tanish emas, haqiqatni sevish salohiyatini ham ko'zlagan mutafakkir san'atkorning yondashuv va maqsadi edi"⁴¹⁹.

Mutafakkirning umuminsoniy mazmunga ega bo'lgan gumanistik qarashlari islom falsafasidan oziqlangan bo'lib, alloma o'zining asarlarida uning diniy va dunyoviy jihatlari, zohiriy va botiniy tomonlarini har tomonlama rivojlantirgan.

Allomaning inson va insonparvarlik to'g'risidagi qarashlarini tahlil qilishdan avval, uning Xudo va tabiatga munosabatiga to'xtalish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz. Uning fikricha, Xudo hamma mavjudotning ibtidosi, boshlang'ichini tashkil etadi. Dunyodagi hamma narsa o'tkinchi, vaqtinchalikdir, Xudo esa abadiy, nimaiki borliqda sodir bo'lsa, uning irodasi bilan amalga oshadi. Mutafakkirning fikr yuritishicha, "aql yordamida inson hamma narsalarning siru asrorini, dunyodagi o'zgarishlarni, ularning mohiyatini chuqur idrok qilolmaydi. Bunga aql ojizlik qiladi. Zeroki, inson bilimi, aqli chegaralangan. U haqiqatni to'la anglay olmaydi"⁴²⁰. SHunga qaramasdan, Navoiy insonni aqlsiz tasavvur qilmaydi. Inson qanday ish bilan shug'ullanmasin aqlga, tafakkurga, uning kuchiga ishonishi kerak, degan fikr mutafakkir asarlarining muhim jihatini tashkil qiladi.

Navoiyning hayotda qilgan ishlari, davlat arbobi sifatidagi faoliyati, xalqning turmushini yaxshilashga, og'ir qismatini yengillashtirishga qaratilgan savobli va xayrli ishlari, "Xamsa" sining mazmun-mohiyati umuminsoniy va gumanistik ruh bilan sug'orilgan. Mutafakkir insonparvarlik tushunchasiga ijtimoiy mazmun

⁴¹⁹ Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. –T.: "Fan", 2007. – 27 b

⁴²⁰ O'zbekistonda ijtimoiy-axloqiy va gumanistik fikrlar tarixining muhim bosqichlari. (Aliqulov H., Nosirov R., Sharipov A., va b.). –T.: "Falsafa va huquq", 2007. – 196 b.

beradi. Ushbu dostonida kamtarlik, vafodorlik, nafsni tiyish, rostgo'ylik, saxiylik, donolik, muhtoj va yetim-esirlarga yordam berish, bag'rikenglik, muloyimlik, shirinsuxanlik, shijoatkorlik, ezgulik, mehr-muruvvat, rahmdillik, odamiylik - bularning hammasi insonparvarlikning tarkibiy qismi bo'lib, insonni kamolot sari, ezgulikka yetaklaydi.

Tasavvuf – sabr-qanoat, zahmat, riyozat bilan poklangan ruh va vujudni olloh ishqiga bag'ishlab, yurakni mosivodan butunlay xalos aylab, faqru-fano zavq-shavqi bilan yashash dema. Tasavvufning tub asosida inson zotiga marhamat, muhabbat va xizmat yotadi. Tasavvuf ahli har qadam, har nafasda insonni jo'n, sayoz tushunchalarni botindan supurib tashlash, ruhni nafs tanballigidan, makr, riyo, kibr va har turli maydakashliklardan qutqazish chora-tadbirlarini ko'rsatadi. Sharqning ko'p buyuk sho'ir adiblari tasavvufiy ma'no va haqiqatlarning badiiy talqinlarini yaratish orqali butun bashariyatga xizmat qilishni ko'zlaganlar. Xususan, A.Navoiy ham rasman naqshbandiya tariqatiga kirgan bo'lsa-da, hayotda ham, ijodda ham tasavvufning ilm va irfon jihatiga tayangan. Ulug' shoir axloq tarbiyasida alohida natijalarni qo'lga kiritish, tafakkurni mahdudlik, qoloqlik, yovuzlik iskanjalaridan ozod qilish, ruh va ko'ngil sir-asrorini kashf etishda haqiqiy ishq va ma'rifatdan shu qadar mohirlik bilan foydalanganki, uning har bir baytida insoniyat manfaatlari yoqlangan.

“Ulug' shoir o'zi haqida, “men”i to'g'risida gapirar ekan, umuman insoniyat haqida gapiradi, negaki uning tabiatida insoniyatga xos hamma narsa mavjud”⁴²¹– deydi V.T.Belinskiy.

Navoiy asarlarida tasavvuf falsafasidagi axloq, xulq-odob qoidalari, insonparvarlik va odamiylik, nafsni tiyish, adolat va ma'rifat, tabiat va insonni sevish, ularni e'zozlash, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi g'oyalardan unumli foydalandi. Bu g'oyalar mutafakkirning g'azal va ruboiylari, dostonlari, nasriy asarlariga singib ketgan. I.Haqqul ta'kidlaganidek, “Navoiyning tasavvufga yondashuvi va bu ta'limotdan ko'zda tutgan maqsadi – shaxs va millat taqdiriga mas'ul, yurt taraqqiyotiga suv va havoday zarur tushunchalarning istiqboli uchun yonib kurashgan, haqiqatni faqat tanish emas, haqiqatni sevish salohiyatini ham ko'zlagan mutafakkir san'atkorning yondashuv va maqsadi edi”⁴²².

Insonni kamolotga yetaklovchi fazilatlarini nihoyatda qadrlagan va o'z asarlari bilan targ'ib va tashviq qilishdan charchamagan ulug' Navoiy har tomonlama kamolotga intilgan yoshlarning, shogirdlarining harakatidan cheksiz quvongan. Ularning hayotda, ijodda yaxshilikka olib boruvchi fazilatlarini, intilishlarini o'z asarlarida birma-bir sanab, urg'u berib, zamondoshlariga va kelajak avlodga ibrat uchun yozib qoldirgan.

Navoiy kabi mutafakkirlarning asarlarida ta'lim-tarbiya, o'qish-o'qitish, o'rganish, ustoz-murabbiylar mehnati, haqi, shogirdlar, ota-onalar, ma'rifat, ma'naviyat haqidagi ijtimoiy, falsafiy, siyosiy, badiiy fikrlari, umuminsoniy g'oyalar mujassamlashgan.

⁴²¹ Belinskiy V.G. Adabiy orzular. Toshkent, 1977. - 136-b.

⁴²² Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. –Toshkent: Fan, 2007. – 27 b.

Shoir asarlarida insoniyatning yuksak ideallarini kuyladi, nafaqat kuyladi, balki o'z ideallari uchun kurashdi ham.

Alisher Navoiy imonni insonlikning bosh belgisi deya ta'kidlaydi. U imon deganda taqlidiy emas, haqiqiy imonni nazarda tutadi. SHoir riyokorlik, soxtakorlik va ikkiyuzlamachiliklar bilan aslo kelisholmaydi. Bunga "shayx" radifli g'azali va "Mahbub ul qulub"dagi "riyokor shayxlar haqida"gi qarashlarini misol qilish mumkin.

Komil inson "bir tomondan, jami ruhiy-ma'naviy qudrat, aqlu zakovat, yaxshi sifatlarning jamuljami hisoblangan mavhum bir zot tushunchasi, ikkinchi tomondan shu cho'qqiga intilib muayyan martabalarga erishgan kishi ham komil inson deb hisoblangan"⁴²³.

Alisher Navoiy komil inson to'g'risida butun bir ta'limot yaratdi. Uning nasriy va nazmiy asarlari, g'azallari, "Xamsa"ga kirgan dostonlari, "Nasoyim ul-muhabbat", "Tarixi anbiyo va hukamo", "Holoti Sayid Hasan Ardasher", "Mahbub ul-qulub", "Majolis un-nafois", "Lison ut-tayr" va boshqalarda komil inson qanday bo'lishi kerakligi, qaysi fazilatlarni egallashi lozimligi haqidagi fikrlar har tomonlama yoritib berilgan.

Navoiyning komil inson ta'limoti negizini tabiat, inson va Allohga bo'lgan muhabbat belgilaydi. U payg'ambarlar, aziz avliyolar, piru komillar, orifu so'fiylar to'g'risida so'z yuritganda, g'azal va ruboiylarida tabarruk zotlarning xislatu fazilatlari haqida ishq-muhabbat bilan yozgan.

Alisher Navoiy "Tarixi anbiyo va hukamo" kitobida Muhammaddan oldin yashab o'tgan payg'ambarlarga maxsus to'xtaladi. Nabiylarning birini ikkinchisidan yuqori qo'ymay, ularning faoliyatini xolisona yoritadi. Payg'ambarlarning hayoti, turmush tarzi, qilgan xayrli ishlari, fuqarolarga munosabati, tinch va osoyishta yashashi uchun sa'y-harakatlarini ta'riflab, ularni komil insonlar deb hisoblaydi. Lekin shuni qayd qilish lozimki, Navoiy o'tmishdagi barcha musulmon Sharqi mutafakkirlari, ulug' donishmandlari singari Muhammad Payg'ambarni boshqa o'tgan payg'ambarlar ichida eng a'losi, komillarning komili, mukammal inson sifatida talqin qiladi. SHuning uchun ham, uning ko'plab asarlarida, xususan, "Xamsa"ga kirgan dostonlari, "Munojot", "Lison ut-tayr", "Siroju-l-muslimiyn", "Nasoyimul-muhabbat", "Nazmul-javohir" va boshqalarda payg'ambarning fazilatlari madh qilingan joylar ko'p. Ulug' mutafakkir Muhammad payg'ambar haqida shunday deydi: "Va chun ul hazrat anbiyoning xotami erdi va andin so'ngra nubuvvat eshigi bog'landi, har oyinakim noqislar takmilig'a ummatining komil va olimlarini ma'mur ettiki, burung'i anbiyo o'rnig'a ahdo qilg'aylar va yo'ldin chiqq'onlarg'a yo'l ko'rguzgaylar..."⁴²⁴.

ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. Lisonut-tayr (Nasriy bayoni), T., 1984, 11-bet.

⁴²³ Komilov N. Tasavvuf. –Toshkent: Movarounnahr-O'zbekiston, 2009. – 138 b.

⁴²⁴ Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. T. 17. –Toshkent: Fan, 2001. – 14 b.

2. Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar, 15-jild. Toshkent sh. 2008 yil - 166 b.
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. - Toshkent, 1983, -74 b.
4. Komilov Najmiddin. A.Navoiy "Istadiim" g'azali umumiy ma'no-mazmuni. Jahon adabiyoti. 2012 yil 6-son. 5-bet
5. Tasfiya – soflash, tozalash, tiniqlash.
6. Qarang: Ibrohim Haqqul. Navoiy she'riyatida komil inson mavzui // Alisher Navoiyning ijodiy merosi va uning jahonshumul ahamiyati. - Toshkent-Navoiy: Fan, 2001.
7. O'zbekistonda ijtimoiy-axloqiy va gumanistik fikrlar tarixining muhim bosqichlari. (Aliqulov H., Nosirov R., SHaripov A., va b.). –Toshkent: Falsafa va huquq , 2007. –196 b.
8. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. Favoyid ul-kibar. Asarlar. T. 4. – Toshkent: Toshkent, 1965. – 447 b.
9. Alisher Navoiy. Devoni Foni. Asarlar. O'n besh jildlik. 5-jild. I va II kitoblar. – Toshkent, 1965.
10. Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. –T.: "Fan", 2007. – 27 b
11. O'zbekistonda ijtimoiy-axloqiy va gumanistik fikrlar tarixining muhim bosqichlari. (Aliqulov H., Nosirov R., Sharipov A., va b.). –T.: "Falsafa va huquq" , 2007. – 196 b.
12. Пулатова, Д. А. (2024). ГЛОБАЛ ТАХДИДЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА ИСЛОМ ФАЛСАФАСИ АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРИНИНГ ЎРНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(1), 457-466.
13. Akmalovna, P. D. (2024). FEATURES OF THE CONCEPT OF MORAL IMPROVEMENT OF PERSONALITY OF CENTRAL ASIA THINKERS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF EUROPEAN RESEARCH OUTPUT*, 3(2), 244-251.
14. Po'Latova, D. A. (2025). ISLOM FALSAFASI AXLOQIY QADRIYATLARI TIZIMIDA ADOLAT TUSHUNCHASIGA ANALITIK YONDOSHUVLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(1), 354-360.
15. Pulatova, D. A. (2025). ISLOM FALSAFIY AN'ANALARIDAGI AXLOQIY QADRIYATLARINING TARIXIY TAHLILI. *International scientific journal of Biruni*, 4(1), 72-79.
16. Belinskiy V.G. Adabiy orzular. Toshkent, 1977. - 136-b.
17. Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. –Toshkent: Fan, 2007. – 27 b.
18. Komilov N. Tasavvuf. –Toshkent: Movarounnahr-O'zbekiston, 2009. – 138 b.
19. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. T. 17. –Toshkent: Fan, 2001. – 14 b.

ИНСОН ҚАДРИ - ЮСУФ ХОС ҲОЖИБ ТАЛҚИНИДА (Инсоннинг қадри билим билан белгиланиши ҳақида)



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15681477>

Абдуганиева Гулноза Абдурахим қизи
Наманган давлат педагогика институти
мустақил тадқиқотчи-изланувчи

“Қутадғу билиг”да “Инсоннинг қадри билим билан белгиланиши ҳақида” деган алоҳида бўлим бор. Унда инсон қадри Ўрта асрлар мусулмон Шарқида ўртага ташланган кўпгина ахлоқий муаммолар таъсирида ахлоққа хулқ, феъл-атвор, маърифат ҳамда инсонни улуғлаш, инсоннинг ақлий қудратига ишонч сингари янгича нуқтаи назардан ёндашилганлигини кузатиш мумкин. Яъни, инсонни яратган Зот унга билим, хунар, уқув ва имкон билан бирга кўнгил, хулқ, латофатни ҳам берди. Аммо, билим инсон қадрини улуғловчи энг муҳим мезон эканлиги алоҳида эътироф этилган. Чунончи, билимни асосини ташкил этувчи маърифат ва идрок кўнгилдаги барча чигалликларни ёзади, кўнгилни фориғлантиради (Арасту талқинида бу жараён катарсис ҳолати деб талқин этилган – А.Г.).

Билимни буюк бил, ақл-идрокни йўл,
Улуғдир икковин тута билган қўл.⁴²⁵

Аҳамиятли жиҳати шундаки, билим инсоннинг қадрини улуғловчи ходиса эмас, билимни фақат ўрганиш билан чекланмаслик керак. Аксинча, Билим идрок билан мустаҳкамлансагина улуғворлик касб этади. Яъни, қаердаки идрок бўлса, улуғлик ўша жойда бўлади, кимда билим бўлса буюклик ўша инсонда бўлади.

Inson qadri va uning falsafiy mohiyati haqida professor Ismoil Saifnazarovning “Inson tafakkuri, insonning hayotdan rozilik darajasi, uning haququqlari so‘zsiz ta‘minlanishi bu har qanday davlat qudratidan muhimroqdir. O‘zbekistonda yurtidoshlarimizning roziligiga erishish, ularning qadr topishiga erishish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi.”, - degan ta‘kidi o‘rinlidir.”⁴²⁶ Chunki, iste‘mol jamiyati vujudga kelishi bilan birga inson taraqqiyoti bilan bog‘liq global axloqiy muammolar ham yuzaga kelmoqda. Bu o‘z navbatida, iste‘molchining jamiyat va atrof-muhit oldidagi ijtimoiy mas‘uliyatini oshirish, ortiqcha iste‘molni rad etish, iste‘molchining axloqiy amaliyoti va iste‘mol sharoitlarini insonparvarlashtirishni taqazo etadi. Ушбу мулоҳазамиз Юсуф Хос Ҳожибда қуйидагича талқин этилади:

Доно билур, идрок этади оқил,
Билимли, оқилнинг муроди ҳосил.

⁴²⁵Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. –Тошкент: “Akademnashr”2015. – 28 б.

⁴²⁶Саифназаров И. Янги Ўзбекистон: инсон қадри улуғланган юрт. –Тошкент: “Ilm-ziyo-zakovat”, 2023. – 198..

Билим маъносини бил, яхши билим ол,
Билимни бил мушкул ерингда қурол.⁴²⁷

Фалсафий тафаккурда инсон ва унинг ҳаёти – олий қадрият сифатида талқин этилади. Унинг сақланиши барча бошқа қадриятлар учун асосий шарт ҳисобланади. Озиқ-овқат, кийим-кечак, бошпана ва таълим каби асосий эҳтиёжлар эркинлик, адолат ва бошқаларни амалга оширишни таъминлайдиган шартлардир. Шунинг учун инсон қадрини улуғлаш, ҳар кимнинг ҳуқуқ ва эркинликлари, қонуний манфаатларини таъминлаш барча даврлар учун ислохотларнинг устувор йўналишига айланади. Шу маънода, Юсуф Хос Ҳожибнинг инсон қадри ҳақидаги қарашлари марказида билим, маърифат бош мезон сифатида кўзга ташланишини кузатиш мумкин. Чунки, билим инсонни: а) муҳтарам қилади; б) шарафлайди; в) зийнатлайди; г) бахтли қилади.

Шуни алоҳида таъкидлаш зарурки, инсон қадри фалсафий-ахлоқий тушунча бўлиб, у адолат ва эркинлик билан бирга ахлоқ, маънавият каби инсонни қадрият сифатида ўрганадиган илмий тадқиқот соҳаларининг объекти ва субъекти ҳисобланади. Жумладан, Қиём Назаров инсон қадрини “Одам зотининг Аллоҳнинг энг буюк мўъжизаси сифатида улуғланиши, ҳар томонлама муносиб қадр-қиммат топишини англатадиган тушунча”, деб изоҳлайди.⁴²⁸

Ушбу мулоҳазага асосланиб, Юсуф Хос Ҳожибнинг мулоҳазаларини таҳлил қилсак, қуйидаги хулосага келишимиз мумкин:

Закийга каттадир законининг нафи,
Билимдан яна ҳам ортар шарафи.
Ҳар не ишинг бўлса, укув бирла қил,
Бахт, иқбол калитибилим эрур, бил.

⁴²⁷ Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. –Тошкент: “Akademnashr”2015. – 28 б.

⁴²⁸ Назаров Қиём. Жаҳон фалсафаси қомуси. –Тошкент: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти” нашриёти. “Маънавият” нашриёти, 2023. -492 б.